



*Bolalar yozuvchisi Edith Shrayber – Vikening “Anton bo'rini uchratgan kecha” qissasi 1986 yilda Avstriyaning “Annette Betts” nashriyotida chop etilgan. Mazkur qissada boshlang'ich sinf o'quvchisi Antonning boshidan kechirgan qiziqarli voqealar badiiy-falsafiy tarzda ifodalangan.*

*Muallifning bu qissadan oldin “Anton bu yerda bo'lmagan kun”, “G'oyat xursandman, mening ismim Mulp”, “Mushuklar karnavali” nomli kitoblari nashr qilingan. Ushbu qissani O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Odiljon Safarov nemischadan o'zbek tiliga o'girgan.*

*Edith Shrayber — Vike xonim adabiyot sohasidagi muvaffaqiyatlari uchun Yanusts-Korstsak medali hamda Avstriya bolalar kitobi mukofoti bilan, shuningdek ikki marta Vena shahri mukofoti bilan taqdirlangan.*

**Oilasi:** ikkita qizi, ikkita mushugi, eri va “o'quvchi bolalari”.

**Yashash joylari:** Vena, Grundlzee, Venetsiya.

**Sevimli hayvonlari:** mushuk, tyulen, chayka, senbernar (yungi uzun, katta, kuchli it).

**Ezgu niyati:** ilhom baxsh etish.

**Orziqib kutadigan istagi:** o'quvchilardan xatlar olish. Aks holda Sizlarga nimalar ma'qul bo'lishini qayerdan bilishim mumkin? (A – 8993 Grundlzee, Auf der Au)

**Adabiyot sohasida erishgan yutuqlari:** Yanusts – Korstsak medali, Avstriya bolalar kitobi mukofoti, Vena shahri mukofoti (ikkni marta).

**Annette Bets nashriyotida chop etilgan kitoblari:** “Anton bu yerda bo'lmagan kun”, “G'oyat xursandman, mening ismim Mulp”, “Mushuklar karnavali”.

## ANTON BO'RINI UCHRATGAN KECHA

— Yur mushugim, - dedi Anton mushugiga, - tomning tagida nimalar borligini ko'rib tushamiz.

Mushuk cho'zilib qaddini rostladi va huzur qilib esnagan holda, bu kichik sayrga xohishi yo'q emasligini bildirganday bo'ldi. Anton tepadagi latta-puttalar va eski mebellar orasida qolib ketgan bahaybat, sirli yog'och sandiqni ko'pdan beri ochib ko'rmoqchi bo'lib yurgandi. Biroq bu ishi onasiga ma'qul bo'lmasligi mumkinligidan xavotirlanardi. Shuning uchun unga bu haqda og'iz ochmasdi. Tom tagiga chiqiladigan burama shakldagi yog'och zinalar qadam bosilgani sayin g'ichirlardi. Mushuk qiziqsinib iskalandi. Sichqonlarning hidi kelib qolishiga umid qilganday Anton ko'zlari yarim qorong'ilikga o'rganguniga qadar kutib turdi-da, sinchkovlik bilan atrofqa qaradi. Ko'p o'rgimchak to'rlari, qovjiragan gullar va giyohlar vassalardan osilib turardi. Bu yerda bir temir stol